



SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORILAYOTGAN INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI

Alimova Dilafro'z Tohir qizi

GulDU "Iqtisodiyot" kafedrası tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8068855>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-June 2023 yil
Ma'qullandi: 18-June 2023 yil
Nashr qilindi: 22-June 2023 yil

KEY WORDS

*investitsiya, investitsion muhit,
investitsion jozibadorlik.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Sirdaryo viloyatida olib borilayotgan investitsion faoliyat tahlil etiladi. Investitsiyalarni kirib kelishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar muhokama qilinadi. Viloyat investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilayotgan omillar ko'rib chiqildi. Investitsion faoliyat rivojlanishiga turtki bo'luvchi takliflar berildi.

Investitsion faoliyatni tashkil etish va samarali yuritish, nafaqat hududning iqtisodiy salohiyatiga, balki aholining ijtimoiy rivojlanishiga, ish bilan ta'minlanishiga, yashash sharoitlarining yaxshilanishiga, shu bilan birga savodxonlik darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Investitsion faoliyat natijasida ishlab chiqarish sohasiga yangi texnologiyalar joriy etiladi, ish sharoitlari yaxshilanadi, natijada esa fuqarolarning umr ko'rish darajasi oshadi, yangi yaratiladigan ish o'rinlari hisobiga esa ishsizlar soni kamayadi. Ishlab chiqarish samaradorligi oshishi bilan birga, bozorga yangi tovarlar kirib kelishi, bir-birini o'rnini bosuvchi tovarlar ko'payishi, ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat hisobiga narx navoning pasayishi, sifatning yaxshilanishi kuzatiladi.

Quyida investitsion faoliyat tahlili o'tkaziladi. Investitsiyalarni kirib kelishini rag'batlantiruvchi va bunga to'sqinlik qiluvchi omillar ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Investitsion faoliyat iqtisodiyotda muhim bo'lganligi sababli, doimo bu mavzu iqtisodchi olimlar e'tiborida bo'lib keladi. Xususan, A.N.Alekseyev ishlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, "investitsion faoliyat investorning daromad olish yoki boshqa foydali natijaga erishish maqsadida investitsiya qo'yilmalari bilan bog'liq harakatlari"¹ deb ko'rsatilgan. A.B.Mayfat fikriga ko'ra esa, "ikki omil: muayyan sohaga investitsiya kiritish hamda investitsiya vositalaridan foydalanish bilan bog'liq harakatlar yig'indisi"² sifatida ta'riflanadi.

D.S.Ratnikovaning ilmiy ishlarida investitsiya faoliyatiga quyidagicha ta'rif keltirilgan: "mazkur faoliyat foyda olish yoki boshqa foydali natijaga erishish uchun mol-mulkni yoki mol-

¹ Мелкумов Я.С. Экономическая оценка эффективности инвестиций и финансирование инвестиционных проектов. – М.:ДИС, 2016. – 344с.

² Майфат А.В. Гражданско-правовые конструкции инвестирования: Моногр. М., 2006. С. 105.

mulkka bo'lgan huquqni qonunda nazarda tutilgan faoliyat turiga tavakkalchilik asosida jalb etish va uni amalga oshirish bosqichlari majmui"³.

O'zbek iqtisodchi olimlaridan A.Vaxabov, Sh.Xadjibakiyev, N.Muminov, D.G'ozibekov, D.Tojiboyevalar tomonidan investitsiyalarning iqtisodiy mohiyati bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

A.Vaxabov, Sh.Xadjibakiyev, N.Muminovlar tomonidan investitsiyalarning mazmun-mohiyati bo'yicha bayon etilgan ta'rifda: "investitsiyalar - foyda olish hamda ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va boshqa faoliyat turlariga qo'yiladigan pul mablag'lari, banklarning maqsadli omonatlari, aksiyalar, boshqa qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, har qanday boshqa mol-mulk yoki mulkiy huquqlar, intellektual boyliklar"⁴ deb ta'riflangan.

Yana bir iqtisodchi olim Sh.Shodmonov Investitsiyalarga "asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir"⁵ deya ta'rif beradi. Bundan tashqari, investitsiya atamasi bilan yonma-yon foydalaniladigan atamalar "nominal investitsiya - pul mablag'lari ko'rinishidagi investitsiyalar"⁶, investitsiya sifatida kiritilgan pul "mablag'lariga sotib olish mumkin bo'lgan investitsion resurslar real investitsiyalar"⁷, investitsiyalarni ro'yobga chiqarish bo'yicha amaliy harakatlar - investitsion faoliyat", investitsiyalarni amalga oshiruvchi shaxsga esa investor deya izox berib o'tadi.

2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining O'RQ-598-sonli "Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risida"gi Qonunida esa "investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

mablag'larni, shu jumladan pul mablag'larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni;

ko'char va ko'chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);

intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjatlar, ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan, patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni"⁸- deya huquqiy jihatdan belgilab qo'yilgan.

Tahlil va natijalar. Investitsion faoliyatni tashkil etish va yuritish bir qancha sharoitlarga bog'liq holda amalga oshiriladi. Hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi, ish

³ См.: Ратникова Д.С. Правовое регулирование инвестиционной деятельности в Российской Федерации: дис.канд. юрид. наук. М., 2011. 214 с.

⁴ Vaxabov A.V., Xadjibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.: "Moliya", 2010

⁵ Sh.Sh.Shodmonov Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent – 2020. 468-bet

⁶ Sh.Sh.Shodmonov Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent – 2020. 468-bet


⁷ Sh.Sh.Shodmonov Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent – 2020. 468-bet

⁸ <https://lex.uz/docs/-4664142>

haqi, potensial investorlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, berilayotgan soliq imtiyozlari investorlarda ma'lum hududga bo'lgan qiziqishning ortishiga sabab bo'ladi. Respublikada investitsiya muhitining qulayligi, ish haqining pastligi, siyosiy barqarorlik mamlakatimizga kirib kelayotgan investitsiyalar oqimining oshishiga sabab bo'lmoqda. Ushbu tendensiya Sirdaryo viloyati hududini ham chetlab o'tayotgani yo'q.

Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 7-aprelda viloyatga qilgan tashrifi davomida 2017-2023 yillar davomida viloyatga 30 trln. so'm investitsiya jalb qilinganligini, buning natijasida 6640 ta yangi korxona ishga tushirilganligini, bu orqali esa 55 mingta doimiy ish o'rni yaratilganligini hamda 17 mingta oila kambag'allikdan chiqarilganligini ta'kidlab o'tildi.

Quyidagi keltirilgan 1-jadvalda 2023-yil 1-chorak yakunida va avvalgi yillarning tegishli davrlarida viloyatga o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori o'sish dinamikasi ko'rsatilgan. Unga ko'ra 2020-yil 1-chorak yakunlariga ko'ra jami o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori sal kam 1,2 trln. so'mni, 2021-yil 1-choragiga kelib 45% ga o'sgan holda 1,748 trln. so'mni, 2022-yil 1-chorak natijalariga ko'ra avvalgi yilga nisbatan 71% ga o'sib 2,989 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil 1-chorak hisobotlariga ko'ra 4,293 trln. so'mga yetgan⁹



1-jadval. Sirdaryo viloyatida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdori (mlrd so'mda)¹⁰

Ushbu jalb qilingan investitsiyalarni taqsimlanishini 2-jadvalda ko'rishimiz mumkin.

2-jadval

Sirdaryo viloyatiga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hududlar bo'yicha taqsimoti (mlrd. so'mda)

	2020	2021	2022	2023- yil yanvar- mart
Sirdaryo viloyati	7191,9	8051,8	12574,7	4293,1

⁹ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>

¹⁰ www.stat.uz rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Guliston sh.	1029,1	1492,9	1184,3	244,0
Shirin sh.	999,7	967,8	233,2	43,5
Yangiyer sh.	515,9	232,7	233,9	69,6
tumanlar:				
Boyovut	254,1	1735,5	5512,2	3198,4
Guliston	518,6	175,9	265,0	52,0
Mirzaobod	678,6	737,1	714,9	101,3
Oqoltin	427,2	286,4	338,1	78,2
Sardoba	441,8	687,4	433,5	85,4
Sayxunobod	453,8	391,9	318,9	31,9
Sirdaryo	1349,2	1143,3	1349,8	223,9
Xovos	523,8	200,9	1990,9	164,9

Jalb qilingan investitsiyalar hisobidan viloyat shaharlari va tumanlarida yirik yirik investitsion loyihalar amalga oshirildi. Buning natijasida esa, qurilish materiallari bilan bog'liq 274 ta loyiha amalga oshirilib, viloyat sanoatida ushbu sohaning ulushi 7 foizdan oshdi. Respublikada ishlab chiqariladigan charm mahsulotlarining 16 foizi, farmatsevtika mahsulotlarining 10 foizi aynan viloyatda ishlab chiqarilyapti.

Alohida ta'kidlab o'tish joizki, Sirdaryo viloyatiga jalb qilinayotgan investitsiyalarning katta qismi Prezidentning 2022-yil oktabr tashrifidan so'ng qabul qilingan Sirdaryoni "ishsizlikdan xoli hudud"ga aylantirish dasturiga asosan sarflanmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, investitsiyalarni jalb qilish natijasida sanoat, ishlab chiqarish, fan, ta'limning rivojlanishi, aholi turmush darajasining oshishi, xalqaro investitsiyalarning kirib kelishi sababli esa madaniy aloqalar o'rnatilishi sodir bo'lmoqda. Investitsiyalardan samarali foydalanish esa, nafaqat hudud iqtisodiy barqarorligini, balki mamlakat iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

E'tibor qaratishimiz zarur bo'lgan yana bir jihat borki, bu viloyatimizning investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari hisoblanadi. 2022-yilga qadar investitsiyalar asosan qishloq xo'jaligi sohasiga yo'naltirilayotgan edi. Endilikda esa, metallurgiya, tibbiyot, biotexnologiyalar, bio-farmatsevtika, qurilish materiallari sohalari ham rivojlanib bormoqda. Bundan tashqari viloyatimiz Sirdaryo bo'ylarida joylashganligini hisobga oladigan bo'lsak, daryo bo'ylari hududlarida turistik zonalar, umumiy ovqatlanish joylari, madaniy hordik chiqarish muassasalari, oromgohlarni tashkil etish orqali investitsiyalar hajmini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2019-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasining O'RQ – 598-sonli "Investitsiyalar va investitsion faoliyat to'g'risida"gi qonuni.
2. Мелкумов Я.С. Экономическая оценка эффективности инвестиций и финансирование инвестиционных проектов. – М.:ДИС, 2016. – 344с.
3. Майфат А.В. Гражданско-правовые конструкции инвестирования: Моногр. М., 2006. С. 105.
4. Ратникова Д.С. Правовое регулирование инвестиционной деятельности в Российской Федерации: дис.канд. юрид. наук. М., 2011. 214 с.
5. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X, Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. T.:

“Moliya”, 2010

6. Sh.Sh.Shodmonov Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent – 2020. 468-bet

7. Tohir o'g'li, F. B. (2022). INVESTITION FAOLIYAT TUSHUNCHASI VA UNING TASNIFLANISHI.

8. Gulizahro, T., Nigora, S., Dilafruz, A., & Azamat, Z. (2022). QISHLOQ XO'JALIGIDA AGRASANOAT VA MUSTAQIL SANOAT TARMOQLARINING TUZILMASI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 203-206.

9. Azamat, Z., Javdod, O., Ravshan, A., Gulizahro, T., & Dilafruz, A. (2023). METHODOLOGY FOR IMPROVING AGRICULTURAL PRODUCTION IN UZBEKISTAN. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 277-279.

10. Gulizahro, T., Zaxinabonu, M., Ravshan, A., & Dilafruz, A. (2023). ENSURING FOOD SECURITY AND PRICE STABILITY ON THE NATIONAL MARKET. " Uchinchi renessansda ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarb muammolari" mavzusidagi onlayn konferensiyasi, 2(10)

